

JADID MA'RIFATPARVARLARI G'OYALARINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

Ilxom I. To'xtanazarov

*FarDU harbiy ta'lim fakulteti uslubiy tayyorgarlik sikli katta o'qituvchisi,
dotsent, zahiradagi mayor*

Annotatsiya: Mazkur maqolada jadid ma'rifatparvarlari g'oyalarining bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmaganligi, ayniqsa yoshlar tarbiyasida va harbiy-vatanparvarlik ruhini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etishi ilmiy tahlil qilinadi. Jadidlarning ilg'or fikrlari, milliy uyg'onish va taraqqiyot g'oyalari zamonaviy O'zbekiston jamiyatining ma'naviy-ma'rifiy hayotida o'z aksini topmoqda. Muallif Prezidentimiz tomonidan ilgari surilayotgan vatanparvarlik, ma'naviyat va ma'rifatni yuksaltirish siyosati asosida jadid mutafakkirlarining merosini yoshlar ongiga singdirish, harbiy kadrlar va yoshlarni yuksak ma'naviy fazilatlar ruhida tarbiyalash masalalariga alohida urg'u beradi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida jadidlar merosining zamonaviy ahamiyati chuqur yoritib berilgan. Ushbu maqola milliy qadriyatlar va ma'naviyat asosida Vatanga sadoqat, halollik, jasorat, kuchli iroda va bilimga asoslangan yoshlarni tarbiyalash uchun ilmiy-nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Jadid ma'rifatparvarlari, ma'naviyat, ma'rifat, vatanparvarlik, O'zbekiston Qurolli Kuchlari, yoshlar tarbiyasi, axloqiy tarbiya, Vatan himoyasi, milliy qadriyatlar, harbiy-vatanparvarlik, davlat mustaqilligi, jadidchilik g'oyalari, ijtimoiy-ma'rifiy islohotlar, ma'naviy-axloqiy fazilatlar, zamonaviy taraqqiyot.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlari Oliy Bosh Qo'mondoni Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Dunyo shiddat bilan o'zgarib,





barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga rahna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo'layotgan bugungi kunda ma'naviyat va ma'rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga etishga intilishiga e'tibor qaratish har qachongidan ham muhim" [1] vazifa bo'lib qolmoqda.

Mamlakat Prezidentining 2018 yil 4 avgustdagi PQ-3898-son qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish kontseptsiasining mazmun-mohiyati va ularni amalga oshirish bo'yicha vazifalar belgilab berilgan. Undan ko'rilgan asosiy g'oya "Vatan – muqaddas, uni himoya qilish sharaflı burchdir". Kontseptsianing asosiy maqsadi – mustaqil, keng dunyoqarash va fikrlashga ega, imon-e'tiqodi va irodasi mustahkam, ma'naviyatli va fidoyi, ajdodlarning bebaho merosiga tayanib yashaydigan barkamol shaxs – Vatan himoyachilarini tarbiyalash, ularning dunyoqarashini, mintaqaviy, ijodiy va tahliliy fikrlash doirasini kengaytirish, ona Vatan taqdiri uchun yuksak mas'uliyat va javobgarlik kabi muhim xususiyatlarni shakllantirishdan iborat [2].

Inson ulg'aygan sari uning Vatan haqidagi tushunchalari ham kengaya boradi. Lekin, alohida ta'kidlash joizki, O'zbekistonda tug'ilib o'sgan har bir inson – "Vatanim" deganida o'z uyini, qishlog'ini yoki shahrini emas, balki O'zbekiston Respublikasini nazarda tutadi. Bu esa Vatan tuyg'usining, vatanparvarlikning xalq qalbidagi ifodasidir. Bulardan ma'lum bo'ladiki, ma'naviyati yuksak millat va davlatnigina kelajagi buyuk bo'lishi mumkin. Zero T.Mahmudov ta'kidlaganidek: "Ma'naviyat millat va shaxsning butun insoniy faoliyat va ideallarini qamrab oluvchi universal tasavvurdir. Ma'naviyat shaxs va millatning "aqli qalbi"ni ifoda etadigan, tarix taqozosiga binoan uning tomonlari namoyon bo'ladigan, tabiat, jamiyat va insonning insoniylashuvi darajasini bildiradigan ruhiy idrok olamidir" [3].

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi bo'lajak ofitserlari o'z mamlakatining fuqarosi ekanini bilishlari, o'zlaridagi iroda va jasoratni, maqsadga intiluvchanlikni, ezgulik va talabchanlikni tarbiyalashi, maqtanchoqlikka, zo'ravonlikka, loqaydlikka, boylikka ortiqcha ruju qo'yish,



boqimandalikka, zararli xulq-atvorlarga qarshi tura olishlari, vatanni, vatandoshlarini sevishlari, barcha millat vakillari bilan do'stlashishni uddalashlari, o'qishda, san'atda, har qanday ishda ijodkorlikni namoyon etishga intilishi kerak. Ular Vatan kelajagini hal qiluvchi, engilmas kuchi ekanini, engilmas kuchga aylanish uchun esa, o'zlarida yuksak ma'naviyatning shakllanishi kerakligini hamda ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega bo'lishlarini chuqur anglab etishlari va unga intilishlari lozim.

Bu borada Vatan ozodligi uchun jonini fido qilgan To'maris, Shiroq, Spitamen, Najmiddin Kubro, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik singari xalqning mard va jasur farzandlari o'sib kelayotgan yosh avlod uchun o'rnak-namuna timsolidir. Masalan, Najmiddin Kubroning o'chmas jasoratini eslang: "Yetmish besh yosh mo'ysafid – ilohiy ilhomdan ma'rifat topib, qalblarni nurlantirgan shayxi kabir holdan toyib, kuchi ketayotganini sezsa ham, jangni to'xtatmay, dushman bayrog'ini g'azab bilan mahkam tutamlab jon berganda keyin o'nta odam uning mahkam qisilgan panjalari orasidan bayroqni zo'rg'a ajratib olgan". Bu jasorat zamirida ona Vatanga cheksiz muhabbat va sadoqat tuyg'usi yotadi. Zero, har qanday jamiyat taraqqiyoti, uning u yoki bu vaqt va makondagi darajasi ko'p jihatdan fuqarolar ma'naviyati, turmush tarzi, xalqning ma'naviy-moddiy, ijtimoiy ehtiyojlari hamda ularning qay darajada qondirilishiga bog'liq. Zero, "Ma'naviyat, – deb yozadi A.Erkayev – millatning asrlar davomida shakllangan, ildizlari uning tarixiy tajribalari va ijtimoiy madaniy rivojlanishi bilan uzviy bog'liq bo'lgan ichki (aqliy) intellektual va sobit hissiy (ematsional) dunyosidir" [4].

Jamiyat taraqqiyotining har bir yangi bosqichi kishilarning ma'naviy-axloqiy fazilatlari ham yangi davrning yuzaga kelishi bilan xarakterlanadi. Ma'naviyatsiz adolatli, yuksalish imkoniyatiga ega bo'lgan jamiyat bo'lmaganidek, jamiyatsiz ma'naviyatning ham bo'lishi mumkin emas. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, yoshlarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirish, ularning o'z milliy-tarixiy, madaniy merosiga sodiqligini qaror toptirish bilan chambarchas bog'liq, – deyish to'g'ri bo'ladi.



Zero, bugungi kunda mamlakatda jadid mutafakkirlari merosini chuqur o'rganish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ma'lumki, xalq tarixining murakkab damlarida, ma'rifat mash'alini baland ko'tarib chiqqan buyuk alloma va adiblar jadidchilik harakatining namoyondalari hisoblanishadi. Jadid so'zi arab tilidan tarjima qilinganida – yangi degan ma'noni anglatadi [5]. Jadidchilik turkiy mamlakatlar, xususan, Turkiston, Kavkaz, Qrim, Tatariston tarixiga XIX asr oxiri XX asr boshlarida muhim ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy harakat sifatida kirib kelgan. Shu davrning 90-yillarida esa O'rta Osiyo mamlakatlariga tarqalgan. Jadidchilik harakatining asosiy g'oyasi avvaliga madaniyat sohasidagi harakat tarzida namoyon bo'lib, ijtimoiy hayotning taraqqiyoti uchun kurashish, turkiy tillarni rivojlantirish, shu tillarning adabiyotni shakllantirish va boyitish, dunyoviy ilmlarni chuqur o'zlashtirish, fan yutuqlaridan foydalanish hamda ayollar va erkaklar tengligi muammolari uchun kurashishga da'vat qilishgan. Ular uchun o'z davrida yangi avlod ta'lim-tarbiyasi muammolari faqat orzu bo'lgani, jamiyat taraqqiyotida madaniyati, ma'rifati, ilm-fanning rivoji bilan bog'liqligini har tomonlama teran anglashgan. O'zlarining shaxsiy manfaatlari, huzur-halovatidan kechib, el-ulus manfaati, yurt taraqqiyotini maqsad qilib amalga oshirgan ta'lim-tarbiyaviy ezgu ishlari avlodlar xotirasida o'chmas iz qoldirganiga hozirgi kun guvohlik beradi.

Turkiston ma'rifatparvarlari orasidagi ta'limshunos, pedagog va axloqshunos Abdulla Avloniydir (1887-1934). Uning XX asr boshlarida Turkistonda mashhur bo'lgan "Turkiy guliston yohud axloq" (1913) asari axloqiy muammolarga jadidchilik nuqtai nazaridan yondashishi, ko'pchilikka tushunarli tilda yozilgani bilan ajralib turadi. XXI asr boshidagi o'zbek jadid ma'rifatchiligining noyob hodisalaridan bo'lgan bu asarning ahamiyati faqat maktab doirasi bilan cheklanmadi. U adabiyot va axloq havaskorlari uchun ham qo'llanma bo'lib xizmat qildi. Abdulla Avloniy tarbiyani, qadimgilar va O'rta asr musulmon Sharqi mutafakkirlari an'analarga suyanib, uchga bo'ladi: badan tarbiyasi, fikr tarbiyasi, axloq tarbiyasi. Shular orasidan axloq tarbiyasiga alohida urg'u berib, uni "Insonlarga eng muhim, ziyoda sharaf, baland daraja berguvchi



tarbiya” [6], – deb baholaydi. Fazilatlarni faylasuf-pedagog yaxshi xulqlar, illatlarni esa – yomon xulqlar deb ataydi. Fatonat, diyonat, sharaf, hayo singari musulmon Sharqi uchun an’anaviy bo’lgan fazilatlar sharhi bilan birgalikda Avloniy vijdon, Vatanni sevmok singari Turkiston mintaqasi uchun yangi talqinda taqdim etilgan fazilatlar haqida alohida to’xtaladi. O’sha davr xalqning ijtimoiy-siyosiy ongini yuksaltirish, Turkistonda milliy demokratik davlat qurishni nazarda tutishgan.

Sharqona ta’limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta’limdan ajratib bo’lmaydi. Ma’naviyatnashakllantirishdagi muhim omil esa mamlakat yoshlarining ta’lim-tarbiya tizimi bo’lib, uning dolzarbligini jadidlarning etuk namoyondalaridan Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asaridagi quyidagi satrlar ham isbotlaydi: “Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir”, “Ilm insonlarning madori hayoti, rahbari, najotidir” [7], – kabi fikrlar hozirda ham o’z ahamiyatini yo’qotgani yo’q. Risola XX asr Turkiston axloqiy tafakkurida salmoqli o’rinni egallaydigan, ham nazariy, ham amaliy axloq muammolarini falsafiy va pedagogik yondashuv orqali hal etishga bag’ishlangan asardir.

Abdulla Avloniy o’z davrida kishilarda, xususan, yosh avlodni chin insoniy axloqiy xislatlar asosida tarbiyalashni istaydi. U ta’lim-tarbiya, ilm va ma’rifat olish yo’li bilan vatandoshlarining baxtli va saodatli bo’lishini orzu qildi.

Abdulla Avloniy fikricha, olamning yaratilishidan maqsad bu insondir. Inson butun borliqning ko’rki va sharafidir. Inson o’z go’zalligi va murakkabligi bilan er yuzidagi barcha maxluqotlardan afzaldir. Butun mavjudod insonga xizmat qilishi kerak, inson uning sohibidir. Chunki insonning aqli bor, u shu aqli yordamida ilm egallaydi, ilm tufayli dunyoniboshqaradi. “Aql” deydi Avloniy – insonlarning piri komili, murshidi yagonasidir. Ruh ishlovchi, aql boshlovchidir. Inson aql va idroki soyasida o’ziga keladurgan zarar va zulmlardan saqlanur er yuzidagi hayvonlarni asir qilib, boshqarur” [8]. Abdulla Avloniy asar yozish bilan bir qatorda maktablar ochish, halqni savodxon qilishga ulkan hissa



qo'shgan, u 1933-yilda o'zbek maktablarining 7-sinflari uchun "Adabiyot xrestomatiyasi" darsligini tuzib, nashr ettirgan.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, adib hamisha el-yurti, vatan ravnaqi, yoshlarning savodli va salohiyatli bo'lishi haqida qayg'urgan. U o'zining axloqiy, ta'limiy asarlari bilan o'zbek ma'rifatchiligida iz qoldirgan, milliy uyg'onish davri adabiyotining maydonga kelishi va rivojiga katta hissa qo'shgan Abdulla Avloniy ijodi bugun ham xalq ma'naviyatini boyitishga xizmat qilib kelmoqda. Zero, bugungi kunda o'sib kelayotgan yoshlarni, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ma'naviy-axloqiy fazilatlarning o'rni – davr talabidir. Zero, vatanparvarlik insonning o'z oilasiga, avlod-ajdodlarining or-nomusiga chuqur ehtiromi, vijdoniga, burchiga va o'z so'ziga sodiqligidir. Ma'lumki, insonni bolalikdan o'z yurtiga, uning an'alariga, tili va madaniyatiga muhabbat hamda hurmat ruhida axloqiy fazilatlarga ega shaxs etib tarbiya qilinmasa, unda vatanparvarlik hissi bo'lmasligi muqarrar.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – B. 27.
2. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 08.08.2018 y.
3. Maxmudov T. Inson va ma'naviyat // Tafakkur va taqdir. – T.: Ma'naviyat. 1998. – B. 34.
4. Erkayev A. Ma'naviyat – ustun yo'nalish. // Iqtisod va hisobot. – 1996. 2- son, – B. 22.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. – T.: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, – B. 64.
6. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yohud axloq. – Toshkent. Yoshlar nashriyot uyi. 2018. – B. 28.
7. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yohud axloq. – Toshkent. Yoshlar nashriyot uyi. 2018. – B. 28.
8. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yohud axloq. – Toshkent. Yoshlar nashriyot uyi. 2018. – B. 28.